

**TARBIYALANUVCHILARDA “ALPOMISH” DOSTONI HAQIDAGI
TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USUL VA
VOSITALARI**

Bektemirova Almagul Qoshqarbaevna

Qoraqolpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani maktabgacha ta‘lim bo‘limi “Ta‘lim sifatini taminlash va metodik xizmatini tashkil etish” sho‘basi rahbari

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni ta‘lim va tarbiyasini mashg‘ulotlar (dostonchilik metodlar) asosida tahlil qilib berdik. “Alpomish” dostonidagi turli xil rasm-rusmlar va odatlarimiz asosida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashning ilmiy-amaliy va pedagogik jihatlari tahlil qilib berildi.

Kalit so‘zlar: "Alpomish" dostoni, "alp", "gender", milliy qadriyat, milliy marosim.

Bugun milliy ma'naviyatimizdagi yangilanish jarayoni, shubhasiz, adabiy merosimizni, shu jumladan xalq og‘zaki ijodini, uning badiiyati, mifologik qatlamini qay darajada o‘zlashtirishimiz bilan belgilanadi. Buning uchun esa eng avvalo san‘atga, adabiyotga zamin bo‘lgan xalqimizning qadim mifologik tasavvurlarini, baxshichilik san‘atini yaxshi o‘rganishimiz, tahlil va tadqiq etishimiz lozim bo‘ladi. Zero, epik ijod har bir xalqning badiiy tarixidir.

Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib yashadi. O‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab keldi. "Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi. Aynan maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarimizni “Alpomish”dek paxlavon bo‘lib voyaga yetishida ularga ushbu dostonning ma‘no mazmunini tushintirib berishimiz, ularning qalbiga mana shu dostonda aks etgan g‘oyalarni singdirtirishimiz lozim. Zero, kelajagimizni egalari bo‘lgan yosh avlod davlatimiz taraqqiyotiga yolg‘on qarashlar, o‘z ota-onasi va oilasini himoya qilishga, hatto jonini ham fido qilishga qodir hissiyot va tuyg‘u bilan kamolga yetsin.

Xalqimizning qadimiy tasavvurlariga ko‘ra, o‘q-yoy - hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o‘n to‘rt botmon birichdan - bronzadan yasalgan yoydan o‘q otib, "alp" degan unvonga ega bo‘ladi. Alp degani - hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko‘p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Aslida, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shohbaytidir. Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib o‘zligini yo‘qotmagan xalqimizning bag‘rikenglik, matonat, olijanoblik kabi

ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan. "Alpomish"dek so'z durdonasini yaratgan, uni asrlar osha avlodlarga yetkazib kelgan ijodkor xalqimiz dahosi oldida bosh egamiz. Bugun biz ming yillar davomida bu dostonni kuylab, gavharday asrab-avaylab, boyitib kelgan, nomlari bizga noma'lum bo'lgan yuzlab xalq baxshilarining iste'dodi qarshisida ta'zim qilamiz. Agar iloji bo'lsa, biz ana shu insonlarning nomlarini ma'naviyatimiz tarixiga oltin harflar bilan yozgan bo'lur edim. Baxshi-shoirlar o'z xalqining biyron tilidir. Ular yurtimizda doimo "Baxshili el - yaxshili el" deb ulug'langan. Bugun biz Yodgor baxshi va Tilla kampir, Jossoq shoir va Amin baxshi, Sherna baxshi va Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh va Po'ltan shoir, Islom shoir va Abdulla shoir, Saidmurod Panoh va Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Berdi baxshi va Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir shoir, Shoberdi baxshi va Abdunazar baxshi kabi dostonchilarning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz. Ularning noyob qobiliyati, yuksak mahorati tufayli "Alpomish" bor salobati va nafosati bilan yashab kelmoqda. Bugun biz bu o'lmas asarni yozib olish, nashr etish, ilmiy o'rganish, tarjima va targ'ib qilish ishiga ulkan hissa qo'shgan Hodi Zarif, Hamid Olimjon, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov kabi zahmatkash insonlarni, ko'plab xorijiy olimlarni ham minnatdorlik bilan eslaymiz.

Yuqoridagi masalalalardan kelib chiqib "Alpomish" dostonini maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarimizga o'rgatish doston qahramonlaridan tortib voqea-hodisalargacha ipidan ignasigacha bolajonlarimizga ma'lumot berish, dostonda yo'g'rilgan g'oyalar vatanga, ota-onaga, yorga va qarindosh urug'ga sadoqatni bolajonlarimizga singdirish bugungi kunning dolzarb masalaridan biridir.

Xalq ijodini o'rganish bu xalqning turmush tarzi, urf-odati, an'analari, tarixi, buguni va kelajagi, tafakkur tarzi hamda ruhiyatini o'rganish demakdir. Unda millatning o'zini bilish, anglash, namoyon etish xislatlari, urinishlari, xalqning ming yillik hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan bo'lib, oddiyroq tilda aytadigan bo'lsak, xalq ijodini o'rganish bu bevosita xalqning o'zini o'rganish demakdir. Bu esa maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarimizning kelajagiga bo'lgan ishonchning ramziy birligidir.

"Alpomish" dostonida farzandning tug'ilishi, unga ism berilishi bilan bog'liq o'rinlar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo'lsada, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbek xalqining turmush va yashash tarzi, uning kelajagi yani xalqimiz tabiri bilan aytganda "taqdiri azal" ota-ona yoki bobo-buvi qo'yayotgan ismiga bog'liq bo'ladi. Bir insonni dunyoga keltirib uni kamolga yetkazish va davlatimizning faol fuqarosi qilib tarbiyalash nechog'lik mashaqqatli ishi ekanligini bilamiz va albatta bolani kelajakda o'z ismiga monand qilib tarbiyalashga harakat qilamiz. Shu o'rnida doston qahramoni Hakimbek yetti yoshga to'lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon parli yoyni otgani uchun «Alpomish» deb ataladi: «Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tdi». Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so'ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu birinchidan shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolatga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan uning boshqa

qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega bo'lganligini ham ko'rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba'zan oilada o'g'il farzand tug'lsa uni «orqalik» ekan deb, hamda insu jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg'on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa, u xastalikka chalinishi mumkin degan qarash mavjud. Ma'lum bir muddatdan so'ng kichik bir marosim o'tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo'yilgan. Eposda marosim hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, balki, uning muhim nuqtalari o'zining badiiy aksini topgan bo'ladi. Eng e'tiborli jihati, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb etadi. «Alpomish» dostonidagi Hakimbekka ikkinchi ism berilishi bilan bog'liq xalqa olib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy putur yetadi. Demak, marosim ma'lum ma'noda epos syujet xalqasining yuzaga kelishiga zamin bo'lishi bilan birga bevosita badiiy estetik funktsiya bajaradi. Aynan bugungi kunda ba'zi bir oilalarda etibor bergan bo'lsangiz farzand tug'lsa unga birinchi va ikkinchi ism qo'yish odat tusiga kirgan. Yani haqiqiy ismi u tug'ilgan to'g'risidagi guvohnomaga yoziladi. Bolani esa biror bir hasadgo'ylarni ko'zi va suqi kirmasin deb uni ikkinchi ismi bilan chaqiradi va shu orqali bolani turli xil yomonliklardan asraydi.

Marosimda yana bir magik harakatlar ritual ahamiyat kasb etsa, eposda u badiiy ko'rinishga ega. Buni "Alpomish" dostonidagi "soch siypatar" va shu kabi marosimlarda ko'rishimiz mumkin.

Soch, yol bu ruhga tegishli. Birovning sochi yoxud yoliga egalik qilish, uning ruhga egalik qilish, uni o'ziga tobe etish bilan barobar hisoblangan. Frezer soch qadim marosimlarda eng yuksak mavqeda bo'lganligini, ibtidoiy inson sochni tarash, oldirish, kuydirish orqali tabiatga va ruhga ta'sir qilish mumkin deb hisoblaganligini ta'kidlaydi.

Soch siypatar, umuman sochning o'rilishi bu qiz bolaning balog'atga yetganligi anglatuvchi unsurlardan biri bulib, u qadimiy soch magiyasi bilan bog'liq marosimning transformatsiyaga uchragan bir ko'rinishidir. Soch magiyasi birinchi navbatta hosildorlik kultiga bo'lgan e'tiqoddan kelib chiqqan. «Alpomish» dostonidagi «soch siypatar» marosimida ham ana shunday qadim tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Qiz bolani sochini o'rishi nafaqat bu uning balog'atga yetganligidan darak, balki endi sen qiz bolasan yomon ko'zlardan panoroq bo'lishing kerak degan ma'naoda uni ostonaga hatlattirib ko'chaga ham chiqaravermaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi qizlarimizni tarbiyalashda ulardagi "gender" munosabatlarni shakllantirib borishni talab etadi. Sababi qiz bola iffatli va xayoli bo'lishi, o'g'il bola yoki erkak kishi oldida ozroq tortinib uyalab turishi ham dostonning asosiy syujetlaridan biri hisoblanadi. Masalan Alpomish qalmoqda Barchin uyushtirgan musobaqada qatnashish uchun boraganda Barchinoy uni oddiga yugurib chiqqib "sochini siypatgani yo'q" balki mard bo'lsangiz biy bobomning o'g'li musobaqada ishtirok etib halol g'olib bo'lib menga ega chiqing deydi. Mana shu yerda ham Barchinoyning "gender" tarbiyasi yetuk bo'lganligidan dalolat beradi.

Xaqimizning ming yildan beri shakllanib kelgan qadriyatlaridan biri arqon, tayoq, oyna marosimlarda eng ko‘p ishlatiladigan predmetlardir. Ularni birlashtirib turuvchi jihat esa, bu uchala jism qadim tasavvurlarga ko‘ra ikki dunyo o‘rtasidagi chegara, belgini ifodalashidir. Shuning uchun kuyov-kelin yo‘liga tashlanadigan arqon, tayoq (baqan) bu ularni bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga qadam qo‘yganligini anglatgan. Shuning uchun ham homilador ayol tayoq yoki arqondan hatlamaydi, oqar suvda cho‘milmaydi, tunda ko‘zguga qaramaydi, sochini kesmaydi degan odatlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Albatta bu kimlardir uchun erish tuyulishi mumkin, chunki bunaqa tarbiya va qarashlar bugun globallashtayotgan asrimizda toboro o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Bir o‘ylab ko‘ring nima uchun bolalar “tug‘ma nogiron” bo‘lib dunyoga kelayabdi, kelin kuyov turmush qurganiga bir yil to‘lmasdan ajralishib ketmoqda, balkim mana shu qadriyatlarimizning oyoq osti qilinish, yoshlarimiz tomonidan eskilik sarqiti deb atalish va nazar pisand qilmasligi asli inson taqdirining fojiasi emasmikin.

Oyna aslida suvning atributi hisoblanadi, suv tabiiy xususiyati bilan ko‘zguga tenglashtirilgan. Suv esa ikki dunyo o‘rtasidagi chegara. Shuning uchun ham suvning barcha din va turli xil marosimlardagi o‘rni juda baland.

Biz yuqorida “Alpomish” dostoni orqali maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarimiz qalbida insonparvarlik, vatanparvarlik, ota-onaga, yoru-do‘stga sadoqatli qilib tarbiyalashni nazarda tutgan holda ushbu doston syujeti va personajlaridan foydalandik.

Xulosa qilib aytganda, epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda “Alpomish”ga o‘xshash eposlarimizga murojaat etishimiz tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o‘rganganimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to‘laroq ochilishi mumkin. Epik ijodkorning qobiliyati, iqtidori an’analarga nechog‘liq rioya qilib, ajdodlardan avlodlarga ulashib kelinayotgan qadimiy dostonga o‘z ulushini qo‘shib, uni qanchalik yangilay olganligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarifov va To‘ra Mirzaev. –Toshkent: Fan, 1999. –820 b.
2. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskoy epos. – Moskva: Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoy literaturi, 1947. –520 s.